

Dastur Andijon mashinasozlik instituti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan (2024-yil "15" maydagi, 10-sonli majlis bayoni)

Tuzuvchilar:

D.A. Moydinov

Andijon mashinasozlik instituti,
"Avtomobilsozlik" kafedrası mudiri.

A.Yusupov

Andijon mashinasozlik instituti, "Mashinasozlik ishlab chiqarishni avtomatlashtirish" kafedrası mudiri, dotsent.

Taqrizchilar:

A.O.Maxmudov

Andijon davlat universiteti,
"Tasviriy sa'nat va muhandislik grafikasi" kafedrası katta o'qituvchisi

A.Igamberdiyev

Andijon mashinasozlik instituti,
"Mashinasozlik ishlab chiqarishni avtomatlashtirish" kafedrası katta o'qituvchisi, t.f.f.d.

Kirish

Ushbu imtihon dasturi 60210400 – Dizayn (avtomobilsozlik dizayni) ta'lim yo'nalishi bo'yicha ijodiy (maxsus) imtihonga kiradigan abituriyentlarning amaliy ko'nikmalarini aniqlashga mo'ljallangan.

60210400 – Dizayn (avtomobilsozlik dizayni) yo'nalishi ijodiy (professional) imtihon: «Rangtasvir» va «Grafik kompozitsiya» fanlaridan olinadi.

1. Auditoriyada abituriyentlar bir-biridan kamida 2 metr oraliq masofada joylashtiriladi (dastlab abituriyent raqamni oladi va shu raqam bilan stolga yaqinlashadi).
2. Abituriyentga imtihon topshirish uchun imtihon komissiyasining muhri bosilgan varaq (2 dona A2) beriladi. Har bir abituriyentga imtihon varaqasi beriladi.
3. Imtihonda qatnashishga imtihon varaqasi va pasport asosida ruxsat beriladi. Imtihonga ruxsat etilmagan shaxslar kiritilmaydi.
4. Vazifalarni belgilash, imtihon topshiruvchi tomonidan ish jadvalini tushuntirish, sarlavha varog'ini to'ldirish, imtihon uchun ajratilgan umumiy vaqtga kiritilgan.
5. Har bir guruhda abituriyentlar tanlangan biletlar asosida topshiriqlarni bajaradilar.
6. Zarur bo'lganda, buzilgan qog'ozni ariza beruvchining iltimosiga binoan almashtirish mumkin, bu holda asl qog'oz yo'q qilinadi. Shuningdek, yangi varoqda shtamp bo'lishi kerak. Qog'ozni o'zgartirganda, topshiriq uchun ajratilgan vaqtni qo'shmaslik uchun ariza beruvchiga oldindan xabar beriladi.
7. Abituriyentlarga o'z ishlarini imzolash, nishonlash yoki suratga olish qat'iyan man etiladi.
8. Tugallangan ish imtihon (tanlov) komissiyasiga o'tkaziladi. Shifrlangandan so'ng, ular tasdiqlangan baholash mezonlariga muvofiq ball tizimida baholanadi. Baholar, shuningdek, so'zlar bilan yoziladi va bu ish bajarilgan qog'oz tomonida bo'lishi kerak.
9. Baholar imtihon varaqasiga va imtihon bayonnomasiga ko'chiriladi. Imtihon natijalari 1-3 ish kuni ichida institutning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.
10. Baholangan ishlar apellyatsiya uchun tanlov komissiyasida qoladi (abituriyentlarga qaytarib berilmaydi).
11. Abituriyentlar institut tomonidan belgilangan tartib va qoidalariga so'zsiz rioya qilishlari shart. Abituriyent tomonidan ushbu qoidalarga rioya qilmaslik imtihon tartibini buzganlik deb hisoblanadi va fan bo'yicha imtihon komissiyasi raisi va komissiya a'zosi dalolatnoma tuzadi va ular chiqarib yuboriladi.

Imtihon ballari quyidagicha taqsimlanadi:

| Jami ball | Jumladan: | |
|-----------|----------------------|-------------------------------|
| | «Rangtasvir» fanidan | «Grafik kompozitsiya» fanidan |

| | | |
|-------|------|------|
| 156,0 | 93,0 | 63,0 |
|-------|------|------|

60210400 – Dizayn (avtomobilsozlik dizayni)
ta'lim yo'nalishiga kiruvchi abituriyentlar uchun:
RANGTASVIR fani bo'yicha kirish (ijodiy) imtihon

DASTURI

Imtihon abituriyentlarning avtomobil modelini faqat rangli qalamlarda bajarish shaklida o'tkaziladi.

Rangtasvir A2 formatidagi qog'ozda **180 daqiqa** davomida bajariladi.

Ijodiy imtihon tugagandan so'ng, har bir abituriyentning ishi maxsus ishlab chiqilgan va tasdiqlangan baholash mezonlari asosida maksimal **93,0 ballik** tizimda baholanadi.

Imtihonda har bir abituriyent quyidagi zarur vositalarga ega bo'lishi kerak:

- A2 qog'oz;
- Rangli qalamlar va TM, M, 2M, ZM kabi uchi o'tkirlangan grafit qalamlarga;
- knopkalar;
- qalamni o'tkirlash uchun ingichka jilvir qog'oz.

Kirish imtixonini o'tkazishdan maqsad – abituriyentning quyidagi bilimlarini va qobiliyatini aniqlashdan iborat:

- shakllarni tahliliy idrok qilish va anglash qobiliyati;
- fazoviy va konstruktiv idrok etish mahorati;
- shaxsiy mualliflikdagi eskiz va badiiy grafika.

Vazifani bajarishda abituriyent quyidagilarni bilishi kerak:

- qog'oz yuzasiga tasvirni to'g'ri joylashtirish;
- tasvirlanadigan ob'yekt nisbatlarini to'g'ri aniqlash va ularning hajmiy yechimlarini ko'rsatib bera olish.

Abituriyent tomonidan ijodiy imtihonda "**Rangtasvir**" fanidan bajarilgan amaliy ishlar quyidagi mezonlarga muvofiq baholanadi:

| № | Mezonlar | Ajratilgan ball |
|----------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------|
| 1 | Tasvirni qog'oz formatiga to'g'ri joylashtirish (tasvir o'lchami maqbul tarzda tanlanishi kerak): | 28,6 |
| a) | Tasvir A2 hajmli qog'ozga kompozitsion jihatdan to'g'ri joylashtirilgan (tasvir o'lchami maqbul tarzda tanlanganligi); | 28,6 |
| b) | Qisman kompozitsion xatoga yo'l qo'yilgan (tasvir o'lchamlarini qisman to'g'ri tanlanganligi); | 20,6 |
| c) | To'g'ri komponovkaning yo'qligi (tasvir o'lchamlari tanlay olmaganligi). | 6,6 |
| 2 | Hajm konstruksiyasi, uning fazoda joylashishi, qismlarining bir-biriga mutanosibligi va yaxlitlik xususiyatlarini chiqarib berganligi, shaklni hosil qilishni asosli tarzda tushunib yetganligi: | 25,4 |
| a) | Shakl va hajmlarning bir-biriga uyg'unligi; | 25,4 |

| | | |
|-------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------|
| b) | Hajm konstruksiyasida yaxlitlik xususiyatlarini chiqarib berganligi; | 19,2 |
| c) | Shakllarning yaxlit kompozitsion yechimga ega ekanligi. | 8,2 |
| 3 | Yorug' va soya nisbati qonuniyatlarini, fazoviy xususiyatni beradigan rang tusini tushunishi (qo'llanilayotgan ranglarning ochlik va to'qlik tusi darajasi shakl qismlarining yorug'lik manbasiga nisbatan fazoda qanday joylashganligiga bevosita bog'liqdir): | 21,3 |
| a) | Yorug' va soyaning rang tusi orqali to'liq ko'rsatib berilganligi; | 21,3 |
| b) | Yorug' va soyaning rang tusi orqali qisman yoritib berilganligi. | 7,9 |
| 4 | Berilgan ishni grafik jihatdan mukammal, ishonchli tarzda, shakllarning kichik qismlarigacha chizish va umumlashtirish, shakllarni qabul qilishda yaxlitlikni ta'minlash: | 17,7 |
| a) | Berilgan shakllarning kichik detallarga ajratilganligi; | 17,7 |
| b) | Umumiy ko'rinishda tasvirni yaxlit tarzda bajarganligi; | 11,9 |
| c) | Berilgan ishni grafik jihatdan mukammalligi. | 6,8 |
| Jami | | 93,0 |

Ushbu talablarning barchasiga javob beradigan abituriyentlar maksimal 93,0 ballni olishi mumkin.

Rangtasvirda bajarilayotgan avtomobil modeli quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Avtobilning tashqi ko'rinishi, konstruksiyasi, o'zaro nisbati va fazoviy holatini to'g'ri berish;
2. A2 format qog'ozining ikki o'lchamli tekis yuzasida uch o'lchamli shakllar tasvirini o'lcham bo'yicha yaxlit tasvirlash bo'yicha o'zida tushunchaga ega bo'lishi;
3. Bir nuqtadan nur yordamida yoritilayotgan hajmni tasvir vositasida ishonchli tarzda ifoda eta olishi;
4. Grafik ishlash mahoratining kerakli darajasiga ega bo'lishi.

60210400 – Dizayn (avtomobilsozlik dizayni)
ta'lim yo'nalishiga kiruvchi abituriyentlar uchun:
GRAFIK KOMPOZITSIYA fani bo'yicha kirish (ijodiy) imtihon
DASTURI

Kirish imtihonining maqsadi: abituriyentning quyidagi bilim va qobiliyatlarini aniqlashdan iborat:

- mavzuni aks ettirish;
- shakllarni hissiy idrok etish, ifodali va mantiqiy fikrlash qobiliyati;
- fazoviy va konstruktiv fikrlash qobiliyatlari;
- asl tasvirni yaratish, g'oyani aks ettirish, tasavvurni namoyish etish qobiliyati;

- vizual tasvirga muvofiq ifoda vositalari va texnikasini tanlash qobiliyati;
- kompozitsiyaning xususiyatlarini hisobga olgan holda uyg'un kompozitsiyani yaratish.

Grafik kompozitsiya A2 formatidagi qog'ozda **180 daqiqa** davomida bajariladi.

Ijodiy imtihon tugagandan so'ng, har bir abituriyentning ishi maxsus ishlab chiqilgan va tasdiqlangan baholash mezonlari asosida maksimal **63,0 ballik** tizimda baholanadi.

Imtihonda har bir abituriyent quyidagi zarur vositalarga ega bo'lishi kerak:

- A2 formatli qog'oz;
- har xil yumshoqlikdagi qalamlar, charxlangan;
- qalamlar (jel) - qalinligi 0,5 va 1,0 mm;
- yumshoq o'chirgichlar;
- chizg'ichlar;
- sirkullar to'plami.

Abituriyent tomonidan ijodiy imtihonda "Grafik kompozitsiya" fanidan bajarilgan amaliy ishlar quyidagi mezonlarga muvofiq baholanadi:

| № | Mezonlar | Ajratilgan ball |
|----------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------|
| 1 | Berilgan ikki proyeksiyasiga asosan yetishmovchi proyeksiyasini topish to'g'ri bajarilgan va mashtabni to'g'ri tanlanganligi: | 20,6 |
| a) | Berilgan ikki proyeksiyasiga asosan yetishmovchi proyeksiyasini topish to'g'ri bajarilgan va mashtab to'g'ri tanlangan; | 20,6 |
| b) | Berilgan ikki proyeksiyasiga asosan yetishmovchi proyeksiyasini topishda va mashtab to'g'ri tanlanishida qisman xatolik yuz berdi; | 14,9 |
| c) | Berilgan ikki proyeksiyalar va yetishmovchi proyeksiya to'g'ri chizilmagan va mashtab to'g'ri tanlanmagan. | 6,9 |
| 2 | Qirqim turi to'g'ri tanlangan va qirqim to'g'ri bajarilgan. (Fazoviy tasavvurga ega ekanligi): | 18,4 |
| a) | Qirqim turi to'g'ri tanlangan va qirqim to'g'ri bajarilgan; (fazoviy tasavvurga ega ekanligi); | 18,4 |
| b) | Qirqim turi qisman mos keladi va qirqim qisman to'g'ri bajarilgan. (fazoviy tasavvurga qisman ega ekanligi); | 13,9 |
| c) | Qirqim turi to'g'ri tanlanmaganligi va qirqim to'g'ri bajarilmaganligi. (fazoviy tasavurning yetishmasligi). | 5,9 |
| 3 | Chizmada chiziq turlariga, o'lcham qo'yish qoidalariga va soddalashtirish qoidalariga rioya qilinganligi: | 13,8 |
| a) | Chizmada chiziq turlariga, o'lcham qo'yish va soddalashtirish qoidalariga rioya qilinganligi; | 13,8 |
| b) | Chizmada chiziq turlariga, o'lcham qo'yish va soddalashtirish qoidalariga rioya qilinmaganligi. | 4,9 |
| 4 | Ishning estetik sifati: | 10,2 |

| | | |
|----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------|
| a) | Chizma A2 formatga to'g'ri joylashtirilganligi va chizma bajarilishida tozalikka rioya qilganligi; | 10,2 |
| b) | Chizma A2 formatga qisman to'g'ri joylashtirilganligi va chizma bajarilishida tozalikka qisman rioya qilganligi; | 6,9 |
| c) | Chizma A2 formatga to'g'ri joylashtirilmagan va chizma bajarilishida tozalikka rioya qilinmagan. | 3,9 |
| | Jami | 63,0 |

Ushbu talablarning barchasiga javob beradigan abituriyentlar maksimal 63,0 ballni olishi mumkin.

APELLYATSIYA TARTIBI

Abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonlarning natijalariga ko'ra, natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat ichida universitet qabul komissiyasining Apellyatsiya kengashiga murojaat qilishlari mumkin.

Arizalar faqat ularning baholari va ijodiy ishlari bilan bog'liq bo'lgan taqdirda qabul qilinadi, ammo boshqa abituriyentlarning ijodiy ishlari to'g'risida shikoyatlar qabul qilinmaydi.